

## Yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

Samandar Bahodirovich Bahridinov

Samandarbahridinov13@email.com

Ilmiy rahbar: Naima Inomidinovna Zaynobidinova

Namangan davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Maqola yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmun-mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni hamda yosh avlod ongida milliy gʻurur, sadoqat va masʼuliyat tuygʻularini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, taʼlim tizimi va ijtimoiy muhitning bu jarayondagi roli yoritiladi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhi tarbiyalash dastlab oilada undan soʻng esa atrof muhitda vatanparvarlik ruhini sindirish bilan bogʻliqdir. Vatanparvarlik ruhi deganda albatta hammamizning koʻz oldimizga vatan himoyachilar yaʼni harbiylar keladi, lekin vatanparvarlik deganda shuning oʻzi emas yosh avlodlar yoshligidan vatanparvarlik ruhini sindirish kerak.

**Kalit soʻzlar:** Vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, milliy tarbiya, qadriyat, fuqarolik maʼsuliyati, taʼlim tizimi, globllashuv, tanqidiy firklash, mafkuraviy imunitet

## Educating Youth in the Spirit of Patriotism

Samandar Bahodirovich Bahridinov

Samandarbahridinov13@email.com

Scientific Supervisor: Naima Inomidinovna Zaynobidina

Namangan State Pedagogical Institute

**Abstract:** The article analyzes the essence and content of educating young people in the spirit of patriotism, its role in the development of society, as well as the pedagogical foundations for forming a sense of national pride, loyalty, and responsibility in the minds of the younger generation. It also highlights the role of the education system and the social environment in this process. The upbringing of young people in the spirit of patriotism begins in the famil and then continues in the surrounding environment. The formation of a patriotic spirit is closely connected with instilling it from an early age. When we talk about patriotism, we usually first imagine the defenders of the homeland, namely the military. However, patriotism is not limited only to this meaning; therefore, it is necessary to instill patriotic feelings in the younger generation from childhood.

**Keywords:** patriotism, youth education, national upbringing, values, civic responsibility, education system, globalization, critical thinking, ideological immunity

Kirish: Vatan dunyodagi eng buyuk, eng muqaddas ne'mat bo'lgani uchun uning mustaqilligi ham shunchalik qadrlidir. Mustaqillik el-yurtimizni zulm va kishanlardan ozod qildi, uning qonuniy huquqlari, sha'n-u g'ururi, tarixi, tili va dini, milliy qadriyatlarini tikladi. Shu bois Mustaqillik kuni biz uchun eng ulug', eng aziz bayramdir.<sup>1</sup> Har qanday davlatning kelajagi yosh avlodning qanday tarbiya topishiga bevosita bog'liq. Agarda ularni yoshlik davridanoq vatanni qanchali ulug' ne'mat ekanligini, uni bor vujudi bilan qadrlash kerak ekanligini qoniga sindira olsak voyaga yetish jarayoni o'z ma'suliyat va burchini anglab boradi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash dolzarb masalaga aylanmoqda. Vatanparvarlik - bu shunchaki tuyg'u emas, balki insonning o'z yurtiga bo'lgan sadoqati, fidoyiligi va mas'uliyatidir. Shu bois yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ko'rishimiz mumkinki O'zbekiston Respublikaning 2023-yil 30-apreldagi referendum orqali yanigilanga konstitutsiyaning "Fuqarolarning burchlari" tog'risida boblarida quyidagicha keltirilgan, O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburlar deb Konstitutsiyamizning 64-moddasida keltirilganligini ko'rishimiz mumkin.<sup>2</sup>

Adabiyot tahlili: Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - jamiyat taraqqiyoti va davlat mustaqilligini mustahkamlashning muhim omillaridan biridir. Vatanparvarlik nafaqat yurtni sevish, balki uning ravnaqi yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilish, tarixiy merosni qadrlash va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashni ham anglatadi. Yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish oiladan boshlanadi. Ota-onaning farzandiga beradigan tarbiyasi, ona yurtga bo'lgan hurmati va milliy qadriyatlarga sadoqati yosh ongida mustahkam iz qoldiradi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tarixiy bilimlarni o'rgatish, buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish orqali yoshlarning Vatanga bo'lgan mehr-muhabbati kuchayadi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari, madaniy tadbirlar, sport musobaqalari va ijtimoiy loyihalarning o'rni ham beqiyosdir. Bu orqali yoshlar jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, o'z yurtining kelajagi uchun mas'uliyatni his qilishga o'rganadi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "yuksak ma'naviyat insonni Vatanga sadoqatli, fidoyi va mas'uliyatli qilib tarbiyalaydi. Shu bois yosh

<sup>1</sup>X. Sultonov, M.Qarshiboyev. Vatan tuyg'usi. Toshkent «Ma'naviyat» 2015 [https://static.oliygoh.uz/uploads/4/vatan\\_tuygusi\\_6\\_uzb.pdf](https://static.oliygoh.uz/uploads/4/vatan_tuygusi_6_uzb.pdf)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

avlodni milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir"<sup>3</sup>. Bunda insonning ma'naviyat qancha yuksak bo'lsa jamiyatga foydasi tegadigan, vatan oldidagi burchini ado eta oladigan va milliy qadriyatlarni hurmat qiladigan inson bo'lishini nazarda tutadilar.

Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 1997-yildan boshlab, barcha oliy o'quv yurtlarida «Ma'naviyat va ma'rifat asoslari» maxsus kursini o'qitishni yo'lga qo'ydi. Shu farmon ham yoshlarni vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda o'z ahamiyati ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

E'tirof etish kerakki, mustaqilligimizni mustahkamlashda va milliy o'zlikni anglashimizda ma'naviyat beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Chunki u xalqimizning, xususan, yoshlarimizning ruhan baquvvat, o'z vatani va millati manfaatlarining fidoyilari bo'lib yetishishlarida hamda yot mafkuralarga qarshi tura olishlarida juda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, Abdulla Avloniyning *"Turkiy guliston yoxud axloq"* asarida vatanga muhabbat, uni qanday sevish kerak ekanligi haqida quyidagicha ta'riflagan. Vatan. Har bir kishining tug'ulub o'skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan - uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo'lub, har vaqt dilining bir go'shasida o'z vatanining muhabbati turar. Biz turkistonlilar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik, issig' cho'llarini, eskimular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi deya oz' asarida alohida ta'rif berganlar.<sup>4</sup>

Mustaqillik ana shunday buyuk qadriyatdir. Bu so'zni aytganda, biz ham tariximiz, ham bugungi kunimiz, ham kelajak hayotimizni ko'z o'ngimizdan o'tkazamiz. Ajdodlarimiz aynan mustaqillikni qo'lga kiritib, o'z yurti, o'z davlatiga o'zi egalik qilgan davrlarda dunyoga dong taratib, mislsiz yutuqlarga erishganlar. Ozodlik yo'lidagi ne-ne qiyinchilik va mashaqqatlardan qo'rqmasdan, mardlik, fidoyilik bilan kurashish talab etiladi. Mustaqillik erishish uchun ko'plab insonlar va jadidlar o'zlarini jonlarini fidoyi qilganlar. XX asr boshlarida jadid ma'rifatparvarlari sifatida maydonga chiqqan tarixiy harakat ham avvalo Toshkentdan boshlanib, butun yurtimizga keng tarqalgan edi.

Vatanimiz mustaqilligining e'lon qilinishi, O'zbekiston Konstitutsiyasi va mamlakatimiz taraqqiyotiga oid ko'plab qonun va qarorlar aynan shu yarda qabul

<sup>3</sup> Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. <https://library.ziyonet.uz/ru/book/40267>

<sup>4</sup> Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: "O'qituvchi", 2008. <http://lib.tiet.uz/file/20220817094508.pdf>

qilingani Toshkantni yangi tariximizning ajralmas qismi bo'lgan, barchamiz faxrlanib, g'ururlanib yashaydigan shaharga aylantirdi.

"Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlathayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi" O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan aytilgan ushbu so'zlar yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda alohida o'rin tutadi.<sup>5</sup>

## XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatimizning huquqi poydevori bo'lib, unda fuqarolarning burchi va huquqlari aniq belgilangan. Ayniqsa, Vatanga sadoqat, uni himoya qilish va jamiyat rivojiga hissa qo'shish har bir fuqaroning muqaddas vazifasi ekani ta'kidlanadi. Islom Karimov o'z asarlarida ma'naviyat va milliy g'oyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini alohida ta'kidlab, yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalash orqali mustaqillikni mustahkamlash mumkinligini asoslab bergan. Uning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asari bugungi kunda ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, "Ma'naviyat asoslari" o'quv qo'llanmasida yoshlar ongini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zarurligi ilmiy asosda yoritilgan. Bu esa ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyaning uzviy va tizimli olib borilishi muhimligini ko'rsatadi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida esa axloq, tarbiya va millatga xizmat qilish g'oyalari ilgari surilgan bo'lib, bu asar yoshlarni vatanparvar, axloqan yetuk inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, ushbu manbalar yosh avlodni Vatanga sadoqatli, ma'naviy barkamol va faol fuqarolar qilib tarbiyalashda o'zaro uyg'un nazariy va amaliy asoslarni yaratadi. Vatanparvarlik esa ana shu ma'naviy tarbiyaning eng muhim natijalaridan biri hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. <https://library.ziyonet.uz/ru/book/40267>
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "O'qituvchi", 2008. <http://lib.tiet.uz/file/20220817094508.pdf>

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistoning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

4. X. Sultonov, M.Qarshiboyev. Vatan tuyg'usi. Toshkent «Ma'naviyat» 2015 [https://static.oliygo.uz/uploads/4/vatan\\_tuygusi\\_6\\_uzb.pdf](https://static.oliygo.uz/uploads/4/vatan_tuygusi_6_uzb.pdf)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistoning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
6. Орифбоева Д. Д. ОПТИМИЗАЦИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ // Форум молодых ученых. 2017. №6 (10). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatel'nogo-protssessa-v-sredney-shkole> (дата обращения: 06.05.2026).
7. Д. Д. Орифбоева, М. М. Адашалиева ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ // «Ёш олимлар ахборотномаси» – «Вестник молодых ученых». 2025. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-vnedreniya-i-razvitiya-inklyuzivnogo-obrazovaniya-v-stranah-tsentralnoy-azii> (дата обращения: 06.05.2026).
8. Oriboeva, D. D. va Rafiqova, RA (2024). O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni amalga oshirishning xususiyatlari. Fan va ta'lim, 5(6), 290-293.
9. Rustamova, S. S. Q. (2025). Dilafruz Oribboyeva Ta'limda gender stereotiplari va ularni yengish usullari. Science and Education, 12.
10. Oribboyeva, D. D. (2024). Ziyeda Botirova Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlarining rivojlanishi. Science and Education, 3.
11. Дилафрўз Дадамирзаевна Орифбоева, Рената Анатольевна Рафикова Особенности внедрения инклюзивного образования в Республике Узбекистан // Science and Education. 2024. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-vnedreniya-inklyuzivnogo-obrazovaniya-v-respublike-uzbekistan> (дата обращения: 06.05.2026).
12. Shuhratjon Shukurjon O'g'li Yoqubjanov, Dilafruz Oribboyeva Temperament va xarakter shakllanishida ijtimoiy omillarning roli // Science and Education. 2025. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/temperament-va-xarakter-shakllanishida-ijtimoiy-omillarning-rol-i> (дата обращения: 06.05.2026).
13. Mohigul Mamanazar Qizi Haydarova, D.D.Oribboyeva O'smirlar psixologiyasi // Science and Education. 2025. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlar-psixologiyasi> (дата обращения: 06.05.2026).
14. Д. Д. Орифбоева, Н. Б. Каримова Психологик тадқиқотларда буллинг муммосининг гендер тахлили // Science and Education. 2025. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologik-tad-i-otlarda-bulling-mummosining-gender-tahlili> (дата обращения: 06.05.2026).

15. Kurbanova, Z. B. Oribboyeva DD Mehnat va muhandislik psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Namangam-“Usmon Nosir mediya”-2022.220 b.